

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "25" "08" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasini mudiri: f.f.d.,

professor B.Karimov B.K. (imzo)

Tuzuvchi:

f.f. n, dotsent O. Usmonov [imzo] (imzo)

Taqrizchilar:

D.Xoldorov [imzo] ToshDO'TAU Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasini dotsent, fil. f. bo'yicha f. dok.

Q.Qahramonov – TDPU professori, filologiya fanlari doktori

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Rektor Sh. Sirojiddinov
2022-yil 25 -avgust
"TASDIQLAYMAN"



ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTI MUAMMOLARI

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Magistratura muta-xassisligi:	70230502 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti)

Semestr	Fan/modul kodi 302IDAM 1 2	Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				Jami yuklama (soat)	
				O'quv mashg'ulotlari (soat)					
Har bir semestrda fan/modulning nomi		ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	Jami:			Mustaqil ta'lim (soat)		
				ma'ruza	seminar	amaliy		laboratoriya	
1	Istiqloq davri adabiyoti muammolari	2	2	30	14	16	0	30	60
Jami:		2	2	30	14	16	0	30	60

1. FANNING MAZMUNI –

–“Istiqloq davri adabiyoti muammolari” fani mustaqillik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari, o'ziga xos tamoyillaridan talabalarni boxabar qilishi bilan birga ularni bu davr adabiyotini mustaqil baholashga o'rgatadi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu fan yangi o'zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlari, yangi o'zbek adabiyoti namoyondalari biografiyasi, nasr va nazmdagi uslubiy izlanishlardan talabani xabardor qiladi.

–“Istiqloq davri adabiyoti muammolari” fani talabani faol kitobxonlikka, bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlarni tahlil qila olish malakasini hosil qilishga, turli uslubga mansub ijodkorlar to'g'risida yaxlit tasavvur berishi jihatidan ahamiyatli sanaladi.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi,

shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalar bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida _____ shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha _____ shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olaydi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushumadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushumadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushumadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

1-SEMESTR

2. Ma'ruza mashg'ulotlari

1-jadval

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-semester			
1.	Istiqlol davri adabiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.	Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlari va yo'nalishlar. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi.	2
2.	Istiqlol davri she'riyatining yetakchi tamoyillari	Mustaqillik yo'lga chiqib olgan xalqni uyg'otuvchi, unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqloq va istiqloqlarga ishonch tuyg'ularini ulug'lovchi she'rlar bugungi adabiy jarayondagi yetakchi tamoyil ekanligi, mazkur tamoyildagi she'rlarda yangi tarixiy voqealarni his qilishga undovchi, ruhan yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalar.	2
3.	Istiqlol davri nasrining o'ziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari	So'nggi davr hikoyachiligidagi janriy-uslubiy o'ziga xosliklar Hikoyaning janr tabiatida tavsifiy-rivoyaviy tipdan novelliklik tip sari siljish kuzatilishi Epik turlarning asosiy janrlaridan biri bo'lgan qissa rivoyaviy asar ekanligi. Unda qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinishi. Barcha voqealar qahramon atrofida uyushtirilishi.	2
4.	Istiqlol davri dramaturgiyasi muammolari	Zamonaviy dramalarda makon va zamon. Konflikt va sujet qurilishi. Shartlilikning: ishoraviylik, mushohadakorlik, ovoz chiqarib o'ylash, xayoliy suhbatdosh bilan muloqot kabi ko'rinishlari rivoj. Zamonaviy dramatik asarlarda personaj nutqining "sun'iy va sahnaviy" ekanligi sabablari. Dramada janrlar modifikatsiyasi: (musiqali drama, musiqali komediya, drama - monolog, miniatyura).	2
5.	Istiqlol davri adabiyoti va adabiy tanqidchilik	"Adabiyotga e'tibor - mahnaviyatga, kelajakka ehtibor" asaridagi yetakchi g'oyalarning adabiy jarayon rivojidagi o'rni. Ijtimoiy-madaniy hayotdagi yangilanishlarning adabiy jarayonga ta'siri.	2
6.	Modernizm va	Adabiy jarayonda an'anaviy ijod namunalari bilan	2

o'zbek adabiyoti	bir qatorda modern izlanishlarning yuzaga kelishi. Turli adabiy yo'nalish va maktab va oqimlar tajribasining o'zlashitirila borishi. Jahon adabiyoti namunalari asliyatdan to'g'ridan to'g'ri tarjimaning adabiyot rivojidagi o'rni	
7.	Adabiy aloqalar va adabiy tahsir - adabiyot rivojining muhim vositalaridan biri ekani. Adabiy hodisalarning zamon va makondan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi. Jahon adabiy jarayonidagi yetakchi tendentsiya, oqim va yo'nalishlarga xos izlanishlarning milliy adabiyotlar yangilanishiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy oqibatlari.	2
	Jami	14

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar uchun o'tiladi.

3. SEMINAR mashg'ulotlari

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
2-jadval			
1-semester			
1.	Istiqlol davri adabiy-ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar	Badiiy adabiyot janrlarining o'ziga xos xususiyatlari. Badiiylik va zamonaviylik prinsipi	2
2.	Istiqlol davri o'zbek she'riyatidagi ijodiy-uslubiy izlanishlar	A.Oripovning «Ko'ztumor», Usmon Azimovning «Uyg'onish azobi» she'riy to'plamlari, Erkin Volhidovning «Vatan umidi» she'ri, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Halima Xudoyberdieva, Oydin Xojieva, Farida Afro'z, Iqbol Mirzo, Mahmud Toirov, Halima Axmedova, Zebo Mirzaeva, Xosiyat Bobomurodova, Sirojiddin Sayyid, Abduvali Qutbiddin, Go'zal Begim, Guljamol Asqarova she'rlarining tahlili.	4
3.	Istiqlol davri qissa va hikoyalarning o'ziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari	Hikoyalarni o'z xarakteriga ko'ra turli yo'nalishlarga ajratish mumkinligi. Hayotning mohiyatini, insonning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsadi kabi masalalarning mohiyatini ochib beruvchi falsafiy hikoyalar.	2

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI
Asosiy adabiyotlar

1. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. Адабий ўйлар. –Т., “Янги аср авлоди”, 2006. -548 бет
2. Ҳамдамов У. Янгилаштириш эҳтиёжи. – Т.: 2002.
- 3.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Орипов А. Адабиёт ва замон. Мустиқиллик даври адабиёти. Адабий танқидий мақолалар, бадиалар. –Т., Гафур Ғулом номидаги нашриёт-мағба уйи, 2006. -288 бет.
2. Karimov N. Istiqlol davri adabiyoti. – Т.: Yangi nashr, 2010.
4. Karimov N va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: O'qituvchi, 1999
5. Каримов Б. Қодирий соғинчи. – Т.: Фан, 2004.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiiy maqolalar to'plami. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
7. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005
8. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Т.: Universitet, 2007.
9. Normatov U. Кўнгилларга кўчган шеърят. – Т.: 2006.
10. Normatov U. Умидбахш тамойиллар. –Т.: 2008
11. Normatov U. Ижодкорнинг дахлиз дунёси. – Т.: 2009.
12. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Т.: Мумтоз сўз, 2009.
13. Расулов А. Услуб – истёвдод портрети. – Т.: 2013.
14. Расулова У. XX аср ўзбек киссалари тадрижи. - Т.: 2012.
15. Санжар Содик. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Т.: Шарқ, 2005.
16. Улуғов А. Қалб қандили. Академнашр, 2013.
17. Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб хосяяти. – Т.: Турон zamin ziyo, 2017.
18. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
19. Ўзбек модерн шеърят. Т.: Янги аср авлоди, 2003.
20. Куронов Д. Завқимдан бир шингил. – Т.: 2013.
21. Гафуров И. Ҳаё – халоскор. – Т.: 2006.
22. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.

Ахборот манбалари:

23. <http://ziyouz.uz>
24. <http://ziyounet.uz>
25. <http://kitob.uz>

4.	Istiqlol davri o'zbek romanchiligidagi o'ziga xos talqinlar	So'nggi davr romanchiligiga xos ijodiy-ustubiy izlanishlar estetik talqini. Roman - epik turning yirik hajmli janri. Romaniy problema, romaniy qahramon va romaniy tafakkur bu janrning belgilovchi xususiyatlari ekani.	2
5.	Istiqlol davri dramaturgiyasi muhim xususiyatlari	U.Nazarning «Oyna», Shukrullonning «Unsiz faryod», O'.Umarbekovning «Yer yonganda», Ulug'bek Hamdam "Muvozanat", Usmon Azim dramalarining tahlili.	2
6.	Adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasi	Adabiy hodisalarning zamon va makondan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi. Jahon adabiy jarayonidagi yetakchi tendentsiya, oqim va yo'nalishlarga xos izlanishlarning milliy adabiyotlar yangilanishiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy oqibatlar.	2
7.	Hozirgi o'zbek nasrida yosh yozuvchilarning o'rni	Bugungi she'riyatda Vatan va vatandarvarlik motiflari milliy g'oya va matkura ifodasi	2
	Jami		16

5. Mustaqil ta'lim:

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	4-jadval	
			Soatlar hajmi	Jami
1.	Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik.	Kutubxonada shug'ullanish	4	
2.	Istiqlol davri adabiyoti masalalari talqin etilgan ilmiy asarlar bilan tanishish	Kutubxonada shug'ullanish	4	
3.	XX-XXI asrlar nasriga bag'ishlangan ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish	Nazariy adabiyotlarni o'zlashtirish	4	
4.	Istiqlol davri she'riyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan tanishish	Kutubxonada shug'ullanish	4	
5.	Eng yangi o'zbek adabiyotida dramaturgiya masalalarining yoritilishi	Nazariy adabiyotlarni o'zlashtirish	4	
6.	Faxriyov, B.Ro'zimuhammad, G.Begim, Z.Mirzo she'rleri tahlili	Kutubxonada shug'ullanish	4	
7.	Hozirgi yosh nosirlar ijodi tahlili	Nazariy adabiyotlarni o'zlashtirish	6	
	Jami		30	